

O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'lim Vazirligi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti “Umumiy tarix” kafedrası.



Laboratoriya mashg'uloti

Mavzu: O'zbekistonda muzeylar va muzey ishi.

Matn ustida ishlash yo'llari. O'zbekistonda muzeylar va muzey ishi.
Tarmoq muzeylarining faoliyati. Mustaqillik davrida
muzey tarmoqlarining kengayishi.

Катта ўқитувчи С.Ширинова

Navoiy-2009

LABORATORIYA MASHG'ULOTI № 1

Laboratoriya mashg'uloti mavzusi: : O'zbekistonda muzeylar va muzey ishi.

Reja:

I. Nazariy savollarga javob berish:

- a) Matn ustida ishlash yo'llari haqida ma'lumot .
- b) Tarixiy madaniy- ma'rifiy moddiy yodgorliklarni to'plash , saqlash o'rganish yo'llari.
- v) Mustaqillik davrida muzeylar faoliyatining mazmuni.

II. Xulosa.

Laboratoriya ishining maqsadi.

- a) ta'limiy- matn ustida ishlash yo'llarini o'rgatish.
- b) tarbiyaviy – ma'naviy qadryatlarni qadrlash, madaniy merosni asrashga o'rgatish.
- v) rivojlantiruvchi - o'quvchilarda matn ustida ishlash qobiliyatini shakllantirishga zamin tayyorlash.

Ma'lumki, muzeylar xalqimizning uzoq tarixidan shikoya qiluvchi, moziydan sado beruvchi ma'naviyat maskanlari bo'lib, yoshlarda milliy g'urur va iftixorni yuksaltirishda xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida muzeylar ishiga alohida e'tibor berilmoqda. Buning asosi va omillari bir qancha. Masalan, yosh avlodni ajdodlar nomi va merosi bilan faxrlanishga o'rgatish, milliy g'ururni yuksaltirish, buyuk an'analar davomchisi qilib tarbiyalash, mustamlakachilik davrida yo'qotilgan milliy tuyg'ularni qayta tiklash, shuningdek, mamlakatimiz jashon shamjamiyatidan munosib o'rin egallab, avlodlarga ozod va obod Vatanni qoldirish, xullas unitilgan tariximizni tiklash uchun kerak.

1998 yil 12 yanvarda «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e'lon qilindi. Unda O'zbekiston shududida qadimdan mavjud bo'lgan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, muzey fondlarini saqlar, ularni to'ldirish, xalqimizning boy tarixidan shikoya qiluvchi noyob va nodir ashyolarni avaylab asrash muzeylarni zamon talablariga javob beradigan xodimlar bilan ta'minlash kabi masalalar qo'yildi. SHuningdek, «O'zbekmuzey» jamg'armasi tashkil etildi. 1998 yil 5 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mashkamasining «Muzeylar faoliyatini tubdan qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risidagi 98-sonli qarori O'zbekistonni xalqaro muzeylar kengashi – IKOM ga a'zo bo'lganligini shisobga olib, mamlakat muzeylarini ta'mirlash, zarur texnik vositalar, asbob-uskunalar bilan jishozlash va mablag' bilan ta'minlash masalasi qo'yildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 1200 dan ziyod muzeylar faoliyat ko'rsatmoqda. Xullas, muzeylarimiz bugungi kunda madaniy, tarixiy, tabiiy, ilmiy qadriyatlarni yig'ib, ashyolar yordamida targ'ib qiluvchi ijtimoiy maskandir. SHuni inobatga olib tarix fakultet talabalariga mo'ljallangan «Muzeyshunoslik» fanidan kichkina uslubiy qo'llanmani taqdim etayapmiz. Bu mazkur fanni o'rganish uchun debocha bo'ladi deb shisoblaymiz.

Mamlakatimizda ilmiy, madaniy va ma'rifiy muassasaga aylanib kolgan muzeyning urni, juda katta. Muzeylar moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklarining asl nusxalarini, arxeologiya, etnografiya, toponomikaga oid materiallarni tuplaydi, saklaydi, ilmiy asosda urganib taxlil kiladi, natijalarini ekspozitsiya sifatida ommalashtiradi.

Yigilgan va muzeyda saklanayotgan barcha materiallar muzeyning ilmiy bazasini tashkil etadi va uning ijodiy faoliyatida asos bulib xizmat kiladi. Mana shu manbalar asosida muzeylar ilmiy tadkikot va madaniy ma'rifiy ta'lim-tarbiya ishlarini olib boradi.

Masalan, Oybek nomidagi Uzbekiston tarixi muzeyi utmishi xakida bir necha suz. Ushbu muzey Turkistonning mashxur olimlari va jamoat arboblari raxbarligida va yordamida bunyod etilgan. Ushbu muzey 1976 yilda tashkil etilgan. XIX asrdan buyon asoru-atikalar ustida arxeologik kuzatishlar, kidiruv ishlari olib borildi. Bu soxada P.I.Lerx, N.I.Veselovskiy, V.A.Jukovskiy, V.A.Bartold, M.S.Andreyev, V.L.Vyatkin, A.Adivayev, A.A.Zimin, V.A.Kallaur, ye.F.Kallaur, B.N.Kastalskiy, N.P.Ostroumov, N.N.Pantusov, Semenov va Smirnovlar tuplagan materiallar Uzbekiston va Turkistonning kadimiy yodgorliklarini xisobga olish, ta'riflash va tekshirish ilmiy muassasalari: imperator arxeologiya komissiyasi, Rus arxeologiya jamiyatining SHark bulimi, shuningdek 1903 yil aprelda tashkil etilgan Urta va SHarkiy Osiyo tarixiy, arxeologiya, lingvistika va etnografiya jamiyatlarining kimmatbaxo materiallari va rus xavaskor kolleksiyachilari; Barchichevskiy, Vyatkin, Poslovskiy, Stolyarov, Terentev, Trofimov va boshkalar tuplagan kupdan-kup materiallar bu muzeyning asosiy fondilarini tashkil etadi.

Muzeyni tashkil etishda Fedchenko faol ishtirok etgan. U tabiiy antropologiya va etnorafiyaga oid materiallar tuplagan. Bu materiallar dastlabki eksponat sifatida muzeyga kuyilgan. Muzeyning ochilishi va uning faoliyati ulkaning madaniy xayotida muxim vokea buldi.

Muzey ishini takomillashtirishda o'zbek muzeyshunos olimlaridan N.Sodi qova, N.SHabibullayev, A.As qarovlarning sham xizmatlari kattadir.

Asrimizning boshlarida, ya'ni 20-yillardan keyin bu muzey xakikiy ilmiy va madaniy-ma'rifiy muassasa bulib koldi. Xozirgi vaktda muzeyda 40 mingdan ortik arxeologiyaga oid eksponatlar, 44 ming kadimgi pul nusxalari, 10 mingdan ortik turli xil etnografiyaga oid buyumlar, 2 mingdan ortik noyob yodgorlik buyumlari majud. Muzeyda Tojikiston,

Turkiston, Kirgizistonga taallukli ma'lumotlar xam kup. Muzei 1967 yilda XIX asrning me'morchilik yodgorligi bulgan binoga kuchdi. Bu binoda 45 ta zal bulib, ularda 7 mingdan ortik eksponat joylashgan.

Bizga tarixni boricha urganishga imkon beruvchi guvoxlarni ana shu muzeylardan izlashimiz mumkin. «Madomi Bizga tarixni boricha urganishga imkon beruvchi guvoxlarni ana shu muzeylardan izlashimiz mumkin. «Madomiki, uz tarixini bilgan, undan ruxiy kuvvat oladigan xalkni yengib bulmas ekan, biz xakkoniy tariximizni tiklashimiz, xalkimizni, millatimizni ana shu tarix bilan kurollantirishimiz zarur. Xakkoniy tarixni bilmasdan turib, uzlikni anglash mumkin emas»¹.

«Buyuk bobolar, aziz avliyolar merosini asrab-avaylab kelayotgan, ularning xayotbaxsh ugitlari asosida uz milliy kadriyatlarini shakllantirib, avlodlarini shu ruxda tarbiyalayotgan mexnatkash xalkimizga mansub ekanligidan xar birimiz cheksiz faxrlanishimiz, unga ta'zim bajo keltirishimiz xam karz, xam farz»². YUrtimizda tarixiy shaxslar, shaxarlar, madaniy yodgorliklarning yubiley va bayramlarini utkazish yaxshi an'anaga aylanib koldi. Bu yerda gap tantanalardagina emas, muximi biz ularning uz davrida kelajak avlod uchun koldirgan salmokli merosi, ijobiy ishlarini kadrlaymiz.

Shunday kilib, fanning maksad va vazifalari muzeyshunoslik orkali tarixni va boshka fanlarni rivojlantirishdan iborat.

Respublikamiz xududida 3 turdagi muzeilar mavjud bulib, birinchisiga ilmiy tadkikot va madaniy-ma'rifiy ishlarni olib boradigan muzeilar kiradi. Ikkinchi tur muzeilarga fakat bir turdagi soxa buyicha ilmiy tadkikot ishlari olib boradigan muzei laboratoriyalariga ega bulgan maxsus muzeilar, Uzbekiston Fanlar Akademiyasi koshidagi bakteriologiya va minerologiya muzei kiradi. Bu muzeyning asosiy maksad ukuv jarayonini yaxshilashdan iborat. SHuningdek turli fan soxalariga bulingan muzeilar, ma'lum tarmokni aks ettiruvchi muzeilar mavjudki, bunga Oybek nomidagi Uzbekiston tarixi muzei, tasviriy san'at muzei, Navoiy nomidagi adabiyot muzei va tabiatshunoslik muzeilarini kupchilik yaxshi biladi.

Xulosa.

Xulosa qiladigan bo'lsak o'quvchilardan madaniy-ma'rifiy maskan sanalgan muzeilarimiz faoliyatini o'rganishning nechog'li zarur ekanligini, mavzuni o'rganish orqali ko'rib o'tamiz. Ma'naviy qadiryatlarimiz tariximiz, qanchalik boy ekanligini muzeilarimizga tashrif buyurganda bilib olamiz.

Xalqimizning buyuk madaniyati, urf-odatlar, turmush tarzi haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lamiz.
